

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 5



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
5-son
oktabr, 2025

October 2025
Volume 3
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika
universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya
universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi
Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет

Московский энергетический институт Войнаш Сергей Александрович

Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве
РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве
РФ

Садриддинов Манучехр Исмоиддинович Международный университет
туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований

международных экономических отношений, Финансовый университет при
Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета.

Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и
бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета
Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита

Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории
Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового
администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа

Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт
проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями,

Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva GulruxJo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

October 2025

Volume 3

Number 5

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ojs.qmii.uz

O'zbekiston tijorat banklarida raqamlashtirilgan moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish istiqbollari

Murtazayev Nurbek Rashidovich

Перспективы развития цифровых финансовых услуг в коммерческих банках Узбекистана

Муртазаев Нурбек Рашидович

Prospects for the development of digital financial services in commercial banks of Uzbekistan

Murtazaev Nurbek Rashidovich

Received: September 17, 2025 Revised: September 20, 2025

■ Accepted: September 23, 2025 ■ Published Online: October 1, 2025

- **Annotatsiya:** Tijorat banklarida raqamlashtirilgan bank mahsulotlarini yaratish, bank mijozlariga zamonaviy bank mahsulotlari takliflarini shakllantirish, mahsulot va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirishni ta'minlash, bankning moliya bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash, daromadligi va rentabelligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan nazariy va uslubiy qoidalar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.
- **Tayanch so'zlar:** Bank, moliya bozori, Internet, IT-texnologiyalar, SWOT tahlil, moliyaviy tahlil.
- **Аннотация:** Научно-обоснованные теоретические и методические методы создания цифровых банковских продуктов в коммерческих банках, формирования современных банковских продуктовых предложений клиентам банка, обеспечения полного удовлетворения их потребностей в продуктах и услугах, обеспечения конкурентоспособности банка на финансовом рынке, повышения рентабельности и прибыльности состоят из разработки правил и практических рекомендаций.
- **Ключевые слова:** Банк, финансовый рынок, Интернет, IT-технологии, SWOT-анализ, финансовый анализ.
- **Abstract:** Scientifically based theoretical and methodological methods for creating digitized banking products in commercial banks, formulating modern banking product offers to bank customers, ensuring full satisfaction of their needs for products and services, ensuring the bank's competitiveness in the financial market, increasing profitability and profitability consists of developing rules and practical recommendations.
- **Key words:** Bank, financial market, Internet, IT technologies, SWOT analysis, financial analysis.

KIRISH

Globalashuv va internetlashuv jarayonlari biznes yuritishning odatiy tamoyillarini qayta shakllantirmoqda. IT-texnologiyalari jamiyatning barcha jabhalariga kirib bordi, bundan bank tizimi ham mustasno emas. Bilamizki, 2020 yilda karantin cheklovlari bo'lganligi tufayli masofadan turib masofaviy ishlashga to'g'ri keldi. Bunda biznes jarayonlarining yangi turlari ya'ni an'anaviy usuldan kechib IT-texnologiyalarni qo'llagan holda masofaviy usulga o'tish orqali shakllandi. Masofaviy xizmat ko'rsatish formati Internet texnologiyalari va ITdasturlashga asoslangan. Raqamli texnologiyalar bank xizmatlarining samaradorligini oshirish, mijozlar ehtiyojini tez va sifatli qondirish, shuningdek, iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. O'zbekiston tijorat banklari ham raqamli transformatsiya yo'lidan faol borib, mobil banking, internet-banking, onlayn kreditlash va raqamli to'lov tizimlarini keng joriy etmoqda. Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida raqamlashtirilgan moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot quyidagi ilmiy usullarga tayangan:


- Statistik tahlil – Markaziy bank va tijorat banklarining rasmiy ma'lumotlari asosida.
- Qiyosiy tahlil – xalqaro tajriba va O'zbekiston holatini solishtirish.
- Empirik kuzatuv – mobil banking, internet-banking va raqamli to'lov tizimlari foydalanuvchilarining dinamikasi.
- Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish – mavjud ilmiy ishlanmalar va xalqaro hisobotlardan foydalanish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shunday qilib, raqamlashtirish – bu bankdagi biznes-jarayonlarni tashkil etishning klassik modelini biznes modelini infokommunikatsiya modifikatsiyasi (shartnomalardan mijozlarga xizmat ko'rsatish senariylariga qadar), tariflarning o'zgarishi, xizmatlarning mazmuni va mijozlar kutganlariga muvofiq foydalanish imkoniyati orqali texnologik yangilanish tomon o'zgartirish.

Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy iste'molchi endi kreditlarni, depozitlarni, hisob-kitoblarni, kartalarni alohida bank mahsulotlari sifatida qabul qilmaydi, uning uchun bu keng qamrovli mahsulot-iste'molchiga bank xizmatlarining to'liq spektrini, yaqin moliyaviy xizmatlarni, masofadan turib kirish va 24/7 qo'llab-quvvatlashni, ijtimoiy tarmoqlarning qulayligi va xususiyatlarini taklif qiluvchi raqamli bank. (1-rasm).





1-rasm. Xalqaro solishtirma tahlil (2023 yil)

1-jadval.

O'zbekistonda mobil banking foydalanuvchilari sonining o'sishi (2020–2024)[1]

YIL	FOYDALANUVCHILAR SONI (MLN)	O'SISH SUR'ATI (%)
2020	6,5	–
2021	9,2	41,5
2022	12,8	39,1
2023	16,4	28,1
2024	19,5	20,2

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, so'nggi to'rt yilda mobil banking foydalanuvchilar soni qariyb 2,5 baravar oshgan. Bu raqam tijorat banklari uchun raqamli xizmatlarni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

2020 yilda foydalanuvchilar soni 6,5 mln bo'lib, bu asosiy nuqta hisoblanadi.

2021 yilda 9,2 mlnga yetdi va 41,5% o'sish kuzatildi.

2022 yilda foydalanuvchilar soni 12,8 mln bo'lib, o'sish sur'ati 39,1% ni tashkil etdi.

2023 yilda esa 16,4 mlnga yetdi va o'sish sur'ati 28,1% bo'ldi. 2024 yilda esa 19,5 mlnga yetdi va o'sish sur'ati 20,2% bo'ldi.

Kuzatilgan holat shuni ko'rsatadiki, foydalanuvchilar soni 5 yilda qariyb 2,5 barobar oshgan. Biroq o'sish sur'ati yildan-yilga pasayib bormoqda, bu bozorning to'yinayotganini anglatishi mumkin.

Agar tendensiya shu holatda davom etsa va o'sish sur'ati taxminan 20% atrofida bo'lsa, 2025 yilda foydalanuvchilar soni 21,5 – 22 mln atrofida bo'lishi mumkin.

Janubiy Koreya mobil bankingda eng yuqori ko'rsatkichga ega (92%), shu bilan birga onlayn kreditlash ham 78% darajada rivojlangan.

Buyuk Britaniyada mobil banking (88%) va onlayn kreditlash (72%) baland ko'rsatkichga ega bo'lib, moliyaviy texnologiyalarning keng qo'llanilishini ko'rsatadi.

Turkiyada mobil banking 77% ni tashkil etsa, onlayn kreditlash 55% bo'lib, markaziy o'rinda foydalanish mavjud, ammo kreditlash hali to'liq rivojlanmagan.

O'zbekistonda esa mobil banking 55% darajada, onlayn kreditlash esa atigi 32%.

Bu raqamlar mamlakatda moliyaviy texnologiyalar hali rivojlanish bosqichida ekanini ko'rsatadi.

Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya moliyaviy texnologiyalardan foydalanishda yetakchi hisoblanadi. Turkiya o'rtacha ko'rsatkichga ega bo'lsa, O'zbekiston hali yo'l boshida. Bu holat O'zbekiston uchun katta rivojlanish salohiyati mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlar tez rivojlanmoqda.

Natijalardan ko'rinadiki:

- Mobil banking foydalanuvchilari 4 yilda qariyb 2,5 baravar oshdi.

- Raqamli to'lov tizimlari eng yuqori o'sishga ega bo'ldi.

- Xalqaro tajriba bilan qiyoslaganda, O'zbekiston ko'rsatkichlari hali past bo'lsa-da, tez o'sish sur'ati ijobiy natijalarni bashorat qilish imkonini bermogda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida raqamlashtirilgan moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Statistika shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda mobil banking va raqamli to'lov tizimlari eng tez rivojlanayotgan segmentdir. Kelgusida fintech kompaniyalar bilan hamkorlik, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va xalqaro tajribani tatbiq etish orqali bank tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish mumkin. Mobil banking foydalanuvchilari soni O'zbekistonda keskin ortmoqda va bu raqamli transformatsiyaning eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. O'sish sur'atlarining asta-sekin pasayishi esa bozorning to'yinish bosqichiga yaqinlashayotganidan dalolat beradi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Murtazaev Nurbek Rashidovich dotsent v.b. Qarshi davlat texnika universiteti / Муртазаев Нурбек Рашидович, и.о. доцента, Каршинский государственный технический университет / Murtazaev Nurbek Rashidovich, acting associate professor, Karshi State Technical University
► nurbekrashidovich@gmail.com

■ ORCID: 0009-0006-7716-6000

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.03.2018-yildagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №PQ-3620-sonli Qarori (7-band).
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017-yildagi "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (3.1-band).
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2018-yildagi PF-5296-sonli "O'zbekiston respublikasi markaziy bankining faoliyatini tubdantakomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (10-band).
- [4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev. 2020- yil 29-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi
- [5]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Murojaatnoma 2020-yil 25-yanvar
- [6]. Abdullayeva Sh.Z. "Bank ishi". Darslik. M.: "IQTISOD-MOLIYA" Toshkent. 2010-y.
- [7]. Karimov, B. (2022). Bank tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
- [8]. Mishkin, F. (2019). The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson Education.
- [9]. Deloitte Insights (2021). Digital Banking Maturity 2021 Global Report.